# FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING
# QARORI

2025-yil 28-avgust 204-11-163-Q/25 Farg‘ona tumani hokimligi

**Farg‘ona tumani hokimligining 2025-yil II-yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 09-fevraldagi PF–16-son Farmonida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil II-yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyuldagi 87-son (XDFU) bayoni talabi hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025- yil 19-avgustdagi 429-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyuldagi 87-son (XDFU) bayoni hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 19-avgustdagi 429-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona tumani hokimligining 2025-yil II-yarim yillik ish rejasi ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari, barcha bo‘limlar, tumandagi korxona va tashkilotlarning ustuvor vazifalari etib belgilansin, jumladan:

-“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 18-20-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida belgilangan ustuvor va strategik yo‘nalishlardagi tizimli vazifalari;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmoni;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har bir hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishda barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida”gi** 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori;

-Davlatimiz rahbarining viloyatga tashriflaridagi uchrashuvlar va yig‘ilishlaridagi ma’ruzasi;

-Davlatimiz rahbari huzuridagi hisobotlari bo‘yicha 2025-yil va kelgusi yillar uchun topshiriqlar bayonnomalari;

-2025-yil II yarim yillikda tuman hokimligi tomonidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan vazifalarni bajarish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan topshiriqlarni ijrosini ta’minlash, shu jumladan Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida, hududlarni rivojlantirishda ishni “mahallabay” va “xonadonbay” tashkil etish, ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o‘tish, “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotning barcha jabhalariga keng tatbiq etish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” asosida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish va muqobil energetika manbalaridan keng foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil II-yarim yillik uchun ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, maslahatchilari, bo‘lim va guruh rahbarlari, tuman tashkilotlariga:

tuman hokimligining 2025-yil II-yarim yillik ish rejasining bajarilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta’minlashda ijro intizomiga qat’iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

uch kun muddatda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha, hududlarni rivojlantirishda ishni “mahallabay”, “xonadonbay” tashkil etish, “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotning barcha jabhalariga keng tatbiq etish, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” asosida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, “yashil iqtisodiyot”ni keng joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e’tiborni qaratgan holda 2025-yil II-yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash topshirilsin.

5. Tuman hokimligining 2025-yil II-yarim yillik Ish rejasi **quyidagi talablariga qat’iy rioya etilsin**:

**Uch kun muddatda** - tegishli tumandagi tashkilot va idoralar hokimlikning 2025-yil II-yarim yillik ish rejasini tartibga solish bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

**doimiy va tizimli asosda** – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o‘rganib chiqilishini (ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq) ta’minlansin;

**2025-yil 20-dekabrga qadar** tuman hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo‘limlariga 2025-yil II-yarim yillik ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, maslahatchi, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari va guruh rahbarlariga:

-tuman hokimi va uning o‘rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

-yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (Ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta’minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratish;

-2025-yil II-yarim yillik ish rejasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati, viloyat hokimligi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, ishlarni rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejalari tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, tuman hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchi, hokimlik apparati bosh va yetakchi mutaxassislari ish rejada belgilab qo‘yilgan vazifa va topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq bajarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsan mas’uldirlar.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining sohalar bo‘yicha barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

**Farg‘ona tuman hokimi** **Inomov X.T**

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 28-avgustdagi
204-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarining 2025-yil II-yarim yillikka mo‘ljallangan**

**I SH R E J A S I**

| № | Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar | Bajarish muddatlari | Mas’ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari |
|---|---|---|---|
| **I. 2025-yil II-yarim yillikda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari** | | | |
| 1. | “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2025-yil II-yarim yillik Belgilangan muddatlarda | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |
| 2. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni sifatli bajarilishini ta’minlash | 2025-yil II-yarim yillik, Belgilangan muddatlarda | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |
| 3. | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, shuningdek, shahar va tuman hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashriflari yakunlari bo‘yicha | 2025-yil II-yarim yillik Belgilangan | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tasdiqlangan yig‘ilish bayonnomalaridagi topshiriqlarni so‘zsiz va sifatli bajarilishini ta’minlash. | muddatlarda | A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |
| 4. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlarni asoslovchi hujjatlari bilan belgilangan muddatlarda taqdim etish hamda ijro.gov.uz tizimiga kiritilishini ta’minlash | Doimiy,<br><br>Belgilangan muddatlarda | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |
| 5. | “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli Farmonida belgilab berilgan vazifalarga qat’iy amal qilgan holda kotibiyatga kelib tushgan murojaatlarni to‘liq, xolis va o‘z muddatlarida ko‘rib chiqilishini tashkil etish. | Doimiy | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |
| **II. Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o‘zgartirishlar, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda byudjet, soliq va bojxona siyosatini muvofiqlashtirish masalalari bo‘yicha** | | | |
| 6. | Farg‘ona tumanida 2025-yilning II-yarim yillik uchun belgilangan tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishilishini ta’minlash bo‘yicha barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 2025-yil<br>II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, J.Xasanov etakchi mutaxassislari |
| 7. | Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2025-yil II-yarim yilligi yakunlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar va | 2025-yil<br>iyul-dekabr | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi,<br>Statistika boshqarmasi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | hisobotlarni tayyorlash. | | A.Yunusov , O.Abdusattorov, etakchi mutaxassislari |
| 8. | Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha mavjud zaxiralardan samarali foydalanish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Yo‘l xarita”lari ijrosini muvofiqlashtirish va har oy yakuni bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar va hisobotlarni tayyorlash. | Tasdiqlangandan so‘ng har oyning 10-sanasiga | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 9. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi PQ-471-son qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil iyul-dekabr | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Soliq inspeksiyasi, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 10. | Har bir hudud byudjetining kamida 5 foizini “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga yo‘naltirilishini ta’minlash. | 2025-yil iyul-dekabr | Farg‘ona tumandagi Xalq qabulxonasi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Xalq deputatlari Tuman kengashi, Kambag‘allikni qisqartirish va badlik bo‘limi, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 11. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi PF-287-son Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Soliq inspeksiyasi, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 12. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024 yil 20-dekabrdagi PF-223-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil davomida | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, A.Yusupov, A.Yunusov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 13. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Farg‘ona tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 16-dekabrdagi PQ-440-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil davomida | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |
| 14. | Ishlab chiqarish hajmini yanada ko‘paytirish orqali aholini kafolatlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, yetarli miqdorda zaxira yaratish hamda narx-navo barqarorligini ta’minlash choralarini ko‘rish.<br>Dehqon bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narx-navosini asossiz oshib ketishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va kunlik nazorat o‘rnatish. | Doimiy | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari<br>A.Yusupov, A.Yunusov |
| 15. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Farg‘ona Bojxona maskani, tegishli ma’sul tashkilotlar<br>A.Yusupov, A.Yunusov |
| 16. | Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga ta’siri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Tijorat banklari (Agro bank, Xalq bank, Turon bank, Universal bank)<br>A.Yunusov, etakchi mutaxassislari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 17. | Vazirlar Mahkamasining “Asosiy turdagi oziq-ovqat va zarur mahsulotlar narxlari barqarorligini ta’minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 19-dekabrdagi 716-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, barcha Dehqon bozorlar, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tuman bo‘limi, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 18. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil davomida | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, A.Yusupov, A.Yunusov |
| **III. Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish hamda davlat-xususiy sheriklik, raqobat va moliya bozorini rivojlantirish masalalari bo‘yicha** | | | |
| 19. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-102-son qarori ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. | 2025-yil davomida | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamkorligida, tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas’ul etib belgilangan korxona va tashkilotlar A.Yusupov, A.Yunusov |
| 20. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-308-son qarori ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. | 2025-yil davomida | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamkorligida, tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas’ul etib belgilangan korxona va tashkilotlar, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 21. | Xususiylashtirishni natijadorligi hamda byudjet | 2025-yil | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | parametrlarini bajarilishini tahlil qilish. | II-yarim yillik | hamkorligida, tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan korxona va tashkilotlar, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 22. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 26-dekabrdagi PQ-458-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Iqtisodiyot va moliya bosh bo'limi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik va boshqa mas'ul bo'limlar, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 23. | "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va qonunosti hujjatlari talablariga rioya etgan holda xaridlar tegishli ravishda axborot portaliga e'lonlar joylashtirilishi, shuningdek, tender, tanlov va auksionsiz to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar tuzilishini oldini olish. | 2025-yil II-yarim yillik | G'aznachilik bo'linmasi va boshqa mas'ul bo'limlar, A.Yusupov, A.Yunusov |
| 24. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 23-iyuldagi PF-104-son Farmonida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi, tijorat banklari va boshqa mas'ul bo'limlar, A.Yusupov, A.Yunusov |
| **IV. Mahallabay ishlash orqali bandlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yer munosabatlarini tartibga solish masalalari bo'yicha** | | | |
| 25. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-29-sonli Farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, A.Yunusov, X.Muminov |
| 26. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi ""Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | | kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 27. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-347-son qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 28. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 29. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-93-son Farmoni doirasida viloyatda “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxssis” Dasturi ijrosini ta’minlash. | 2025-yil davomida | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 30. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-312-son qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 31. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 27- | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | dekabrdagi PF-229-son Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | | kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 32. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil<br>II-yarim<br>yillik | MFY larga biriktirilgan tijorat banklari, mas’ul korxona va tashkilotlar,<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 33. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-son qarori doirasida joriy yilda 498 mingta yangi ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlash. | 2025-yil<br>davomida | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Tijorat banklari, Investitsiyalar va tashqi savdo kotibiyati, Qishloq xo‘jaligi va Qurilish bo‘limlari<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 34. | Hududlarda yashirin ish o‘rinlarida legiallashtirish bo‘yicha 2025-yil uchun belgilangan prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, tahliliy ma’lumotlar kiritish. | Har oy yakuni bilan | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Soliq inspeksiyasi<br>A.Yunusov, I.Sharopov |
| 35. | Soliq inspeksiyasi tomonidan ro‘yxatdan o‘tishi orqali fuqarolarni o‘zini o‘zi band qilish chora-tadbirlarini ko‘rish. | 2025-yil<br>II-yarim<br>yillik | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Soliq inspeksiyasi<br>A.Yunusov, I.Sharopov |
| 36. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5140-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | 2025-yil<br>II-yarim<br>yillik | Tuman hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar<br>A.Yunusov, X.Muminov |
| 37. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktyabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar | 2025-yil<br>II-yarim<br>yillik | Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmonida belgilangan vazifalarni natijadorligi tahlil qilish. | | A.Yunusov, X.Muminov |
| 38. | 2025-yilda tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha har bir hudud bo‘yicha aniq prognoz ko‘rsatkichlar bo‘yicha “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqish, tasdiqlash va ijrosini belgilangan muddatlarda bajarilishini nazoratga olish. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, A.Yunusov, X.Muminov |
| 39. | Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini yuritib vatanga qaytgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, A.Yunusov, X.Muminov |
| 40. | “Ishga marhamat” va kasb-hunarga o‘qitish markazlarida tashqi mehnat bozorida yuqori talabga ega bo‘lgan yangi kasblar bo‘yicha o‘quv kurslarni tashkil etish. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi, A.Yunusov, X.Muminov |
| **V. Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish master-rejalarni ishlab chiqish loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha berilgan topshiriq va vazifalar** | | | |
| 41. | Farg‘ona tumanidagi Shohimardon va Yordon qishloqlarini geografik joylashuvi, salohiyatini va iqtisodiy “drayverlari”ni aniqlagan holda yuqori daromadli investitsiya loyihalari, xizmatlar ko‘rsatish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, ekoturizm majmualari va dam olish maskanlarini iqtisodiy rivojlantirishni yaqin, o‘rta va uzoq muddatlarga rejalashtirish mexanizmlarini o‘zida aks ettirgan master reja ishlab chiqish. | 2025-yil davomida | Tegishli barcha ma’sul korxona va tashkilotlar, Loyiha ofisi mutaxassislari |
| 42. | Master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun master-reja hududidagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rsin. | 2025-yil 1-avgust qadar | Tegishli barcha ma’sul korxona va tashkilotlar, Loyiha ofisi mutaxassislari |

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 28-avgustdagi
204-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Farg‘ona tumani hokimligi qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining 2025-yil II-yarim yillik**

**ISH REJASI**

| № | Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar | Bajarish muddatlari | Mas’ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari |
|---|---|---|---|
| **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari** | | | |
| 1. | **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2025-yil - «Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili»da** amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini tashkil etish. | Avgust-oktyabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 2. | **Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi boshqarma va tashkilotlar faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari** (KPI) bajarilishini tashkil etish, muhokama qilish va viloyat hokimiga materiallarni tayyorlab borish hamda nazoratga olish. | Avgust-dekabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 3. | Kotibiyat tarkibiga kiradigan boshqarma va tashkilotlar tomonidan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni so‘zsiz va sifatli bajarish.** | Belgilangan muddatlarda | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4. | Kotibiyat tarkibiga kiradigan boshqarma va tashkilotlar tomonidan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomalari topshiriqlarini so‘zsiz va sifatli bajarish.** | Belgilangan muddatlarda | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 5. | Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal sohalarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va kengaytirishga oid **“yo‘l xaritalari”da belgilangan chora-tadbirlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlash.** | avgust-oktyabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 6. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmonidan **kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish**. | avgust-dekabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| 8. | **5 ta MFY hududlarini rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish** bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish. | Joriy yilda | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi |
| 10. | **33,0 km (2-yarim yillikda 12 km)** umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, tuman va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini hamda **3 ta (2-yarim yillikda 1 ta)** ko‘priklarni rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish | Yil davomida | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Tuman yo‘llardan foydalanish DM |
| 11. | **23,2 km (2-yarim yillikda 10.2 km)** ichimlik va oqova suv tarmoqlarini hamda **7 ta (2-yarim yillikda 4 ta)** inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish orqali **4,0** | Yil davomida | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, “Farg‘ona suv ta’minot” AJ Farg‘ona tuman bo‘limi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | **ming nafar aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, 15,5 ming nafar aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash** hamda markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini **83,9 foizga yetkazish** bo'yicha amaliy choralar ko'rish. | | |
| 12. | **18,0** km elektr tarmoqlari va **11 ta** transformator punktlarini qurish hamda **127,0 km** elektr tarmoqlari va **70 ta** transformator punktlarini mukammal ta'mirlash va **65 ming** nafar aholi va **3,5 mingdan** ziyod tadbirkorlik va ijtimoiy soha obyektlarini elektr ta'minotini yaxshilash. | Yil davomida | Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, "Farg'ona elektr tarmoqlari" AJ Farg'ona tuman elektr ta'minoti filiali |
| 13. | **2026-yil** uchun renovatsiya qilish bo'yicha manzilli ro'yxatni shakllantirish hamda tasdiqlash. | Joriy yilda | Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligibo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi |
| 14. | **2027-yilda sement-beton qoplamali yo'llar** qurish manzilli dasturini ishlab chiqish. | noyabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Tuman yo'llardan foydalanish DM |
| **O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan topshiriqlar ijrosini maqsadli o'rganish** | | | |
| 15. | Viloyatda **"Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilishi,** **616 xonadondan iborat bo'lgan ko'p qavatli uy-joylar qurilishi** hamda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturining ijrosi yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borish. | Har chorak keyingi oyning 10-sanasiga qadar | Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Iqtisodiyot va moliyabo'limi |
| 16. | **Aholining ichimlik suv ta'minotini va oqova suv** | sentyabr-dekabr | Tuman hokimining qurilish masalalari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | **tizimini yaxshilash, sohada davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, sohaga zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish** bo‘yicha vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borish *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-son qarori).* | oylarida | bo‘yicha o‘rinbosari, “Farg‘ona suv ta’minot” AJ Farg‘ona tumani bo‘limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, |
| 17. | **2025-yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi** ijrosi bo‘yicha har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borish *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12- dekabrdagi PQ-454-son qarori).* | Har chorak keyingi oyning 10-sanasiga qadar | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi |
| 20. | **Viloyat shtabi bilan birgalikda Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish** hamda **“tashabbusli byudjet”** jarayonida g‘olib deb topilgan loyihalar ijrosini barcha hududlarda joyiga chiqqan holda o‘rganish. | Har hafta kamida bir marotaba | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi |
| 22. | **Qattiq maishiy va qurilish chiqindilarini yig‘ish, saralash va qayta ishlash** bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni maqsadli o‘rganish va viloyat komissiyasi muhokamasiga kiritish. | avgust | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi |
| 23. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora- tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil** 15-avgustdagi PQ-278-son qarori ijrosini tahlil qilish va maqsadli o‘rganish.<br>Ko‘p kvartirali uy-joylarni **mukammal va joriy ta’mirlash** bo‘yicha hududlarda amalga oshirilayotgan | sentabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ishlarni maqsadli o‘rganish. | | |
| **24.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi **“Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va energetika sohasi obyektlari hamda ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2025/2026-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 453-son** qarori ijrosini maqsadli o‘rganish. | | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi, Farg‘ona tumani elektr ta’miniti bo‘limi, “Hududgaz Farg‘ona” gaz ta’minoti Farg‘ona tuman filiali |
| **25.** | **“Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish** hamda **bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlash** borasida ko‘rilayotgan choralar to‘g‘risida. | oktabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi |
| **26** | **Jamoatchilik fikri asosida shakllangan “Tashabbusli byudjet” loyihalari** va qo‘shimcha ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan ishlar va ko‘rilayotgan choralar natijadorligi to‘g‘risida. | oktabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| **27.** | Viloyat hududlarida **aholining ichimlik suv ta’minotini va oqova suv tizimini yaxshilash, sohada davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, sohaga zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish** bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to‘g‘risida. | noyabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, “Farg‘ona suv ta’minot” Farg‘ona tuman bo‘limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi, Iqtisodiyot va moliyabo‘limi |
| **28.** | **Kommunal xizmat** ko‘rsatish sohasida ishlar samaradorligini oshirish hamda **boshqaruv kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish** bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar natijadorligi to‘g‘risida. | dekabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari |
| **Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va viloyat hududlarida islohotlarning borishi masalalarini tuman hokimi huzurida ko‘rib chiqish** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 29. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohasi obyektlarini barpo etishda buyurtmachi xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2024-yil 8-fevraldagi PQ-65-sonli qaroriga asosan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim va ixtisoslashtirilgan ta’limi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida. | avgust | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi |
| **Tuman hokimi rahbarlik qiladigan komissiya, kengash majlislarida ko‘rib chiqiladigan masalalar** | | | |
| 31. | 2025-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi ijrosini muhokama qilib, loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, mablag‘larni maqsadli sarflash va ularning natijadorligini ta’minlash yuzasidan mas’ul rahbarlarning hisobotini eshitib borish. | 2025 yil sentabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi |
| **Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va viloyat hududlarida islohotlarning borishi masalalarini Tuman hokimining o‘rinbosari huzurida ko‘rib chiqish** | | | |
| 32. | Viloyatdagi ko‘p kvartirali uylarning **markazlashgan issiqlik ta’minoti tizimini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish** va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida. | noyabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi |
| 33. | Ekspluatatsiya muddatini o‘tab bo‘lgan va ma’nan eskirgan **ko‘p qavatli uy-joylarni renovatsiya qilish** bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida. | dekabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘limi |
| 34. | **Jamoat transporti faoliyatini yanada rivojlantirish** bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida. | noyabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Transport bo‘limi |
| 35. | Yer qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash, yer | har oyda bir | Tuman hokimining qurilish masalalari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallash va ulardan noqonuniy hamda samarasiz foydalanish holatlarining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida. | marotaba | bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Kadastr agentligi viloyat bo‘limi |
| **36.** | Uy-joy qurilishi hamda ipoteka kreditlari ajratilishida yuzaga keladigan muammoli masalalarni tezkor hal etib borish choralari to‘g‘risida | Har oyda bir marotaba | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Tumandagi tijorat banklar |
| **37.** | **Maishiy, qurilish va sanoat chiqindilarini yig‘ish va qayta ishlash hamda sohada davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish** yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida. | dekabr | Tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishibo‘limi |

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 28-avgustdagi
204-11-163-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining 2025-yil II-yarim yillikka mo‘ljallangan**

**ISH REJASI**

| T/r | Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar: Tumandagi bo‘lim va tashkilotlar |
|---|---|---|---|
| **I. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar** | | | |
| 1. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini **“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”** 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga muvofiq **“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish** yuzasidan belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, kompleks tarkibidagi barcha bo‘lim va tashkilotlar |
| 2. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlar** mutasaddi bo‘lim va tashkilotlar tomonidan sifatli bajarilishi bo‘yicha muntazam monitoring olib borish. | 2025-yil II-yarim yillik | Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, kompleks tarkibidagi barcha bo‘lim va tashkilotlar |
| 3. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish** | 2025-yil II-yarim | Kompleks tarkibidagi barcha bo‘lim va tashkilotlar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | **bo‘yicha o‘tkazilgan** majlislar yakunlariga muvofiq tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni sifatli bajarish. | yillik | |
| 4. | Yoshlar, ayniqsa kam ta’minlangan oilalar farzandlarini zamonaviy kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish orqali ularning bandligini ta’minlash, yuqori daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish. | 2025-yil iyul-dekabr | Yoshlar ishlari bo‘limi, Kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi |
| 5. | Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali yoshlarning iqtidorini rivojlantirish. | 2025-yil iyul-dekabr | Yoshlar ishlari bo‘limi |
| 6. | Tumandagi aholi soni va mavjud ishsizlar sonidan kelib chiqqan holda xorijda aniqlangan ish o‘rinlarini hududlar kesimida taqsimlash hamda ushbu ish o‘rinlari asosida ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni xorijiy tillarga va kasb-hunarga o‘qitishni ta’minlash. | 2025-yil II-yarim yillik | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Yoshlar ishlari bo‘limi |
| 7. | Xorijga mehnat migratsiyasiga chiqib ketayotgan fuqarolar va ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish. | 2025-yil iyul | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi |
| 8. | O‘zbekistondagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, aholining terrorizm va ekstremizm mafkurasiga immunitetini qarshi shakllantirish, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan shaxslar bilan tizimli ishlar olib borish, bunda “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, dinlararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm g‘oyalariga qarshi ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni tashkil etish va aholi, xususan yoshlar o‘rtasida, terrorizm, ekstremizm va diniy aqidaparastlikka qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish. | 2025-yil sentabr, dekabr | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, DIQ tumandagi mutaxassisi |

